



ISSN 3030-3702

TEXNIKA FANLARINING
DOLZARB MASALALARI

TOPICAL ISSUES OF TECHNICAL
SCIENCES



№ 2 (3) 2025

TECHSCIENCE.UZ

Nº 2 (3)-2025

**TEXNIKA FANLARINING DOLZARB
MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES
OF TECHNICAL SCIENCES**

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

KARIMOV ULUG'BEK ORIFOVICH

TAHRIR HAY'ATI:

Usmankulov Alisher Kadirkulovich - Texnika fanlari doktori, professor, Jizzax politexnika universiteti

Fayziyev Xomitxon – texnika fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Rashidov Yusuf Karimovich – texnika fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Adizov Bobirjon Zamirovich – Texnika fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti;

Abdunazarov Jamshid Nurmuxamatovich - Texnika fanlari doktori, dotsent, Jizzax politexnika universiteti;

Umarov Shavkat Isomiddinovich – Texnika fanlari doktori, dotsent, Jizzax politexnika universiteti;

Bozorov G'ayrat Rashidovich – Texnika fanlari doktori, Buxoro muhandislik-texnologiya instiuti;

Maxmudov MUxtor Jamolovich – Texnika fanlari doktori, Buxoro muhandislik-texnologiya instiuti;

Asatov Nurmuxammat Abdunazarovich – Texnika fanlari nomzodi, professor, Jizzax politexnika universiteti;

Mamayev G'ulom Ibroximovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Jizzax politexnika universiteti;

Ochilov Abduraxim Abdurasulovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instiuti.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370-son qarori bilan texnika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Muassislar: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyat; Jizzax politexnika insituti.

TECHSCIENCE.UZ- TEXNIKA FANLARINING DOLZARB MASALALARI
elektron jurnali 15.09.2023-yilda
130343-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy.
Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Barcha huqular himoyalangan.

© Sciencesproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

TEXNIKA FANLARINING
DOLZARB MASALALARI
3-jild, 2-son (may, 2025). -143 bet.

MUNDARIJA

<i>Raxmanqulova Mashhura va G'ulomov Sherzod</i>	PAKETLARNI FILTRLASH ALGORITMLARI TAHLILI VA AMALIYOTDA TAQQOSLASH	5-10
<i>Razzakova Gulora</i>	EDGE COMPUTING VA EDGE INTELLIGENCE: IOT TIZIMLARIDA SAMARADORLIK VA TEZKOR QAROR QABUL QILISH IMKONIYATLARI.....	11-17
<i>Rahimov Doston va Toshpo'latov Murodullo</i>	IKKINCHI TARTIBLI NOKASSIK TENGLAMALAR SISTEMASI UCHUN CHEGARAVIY MASALA.....	18-22
<i>Axmadaliyeva Shoxista, Rasuleva Roziya, Ro'zimova Surayyo</i>	RAQAMLI PEDAGOGIKANING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI.....	23-30
<i>Abduvoxobov Abbosbek</i>	AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TEXNOLOGIYALARI.....	31-35
<i>To'rayev Azizbek</i>	AVTOMOBIL GRUNTOVKALARIDA BAZALT TOLASINING QO'LLANILISHI: ISTIQBOLLI TADQIQOTLAR VA KELAJAK YO'NALISHLARI.....	36-46
<i>Абдуллаев Абдурауф</i>	МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ И ПРАКТИЧЕСКОЙ РЕАЛИЗАЦИИ ГИПЕРКОНВЕРГЕНТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ	47-62
<i>Ochilov Murodjon va Ibragimov Islomnur</i>	QUYOSH PANELLARI YUZASIDAGI IFLOSLANISHNI BARTARAF ETISH UCHUN PYEZOELEKTRIK VIBRATSIYAGA ASOSLANGAN AVTOMATLASHTIRILGAN TOZALASH TIZIMINI LOYIHALASH VA JORIY ETISH USULLARI	63-72
<i>Маматкулова Сайёра</i>	МОДЕЛИРОВАНИЕ ТЕПЛО- И МАССООБМЕННОГО ПРОЦЕССА ПИРОЛИЗА ПОДСОЛНЕЧНОЙ БИОМАССЫ В ТРУБЧАТОМ РЕАКТОРЕ ПИРОЛИЗНОЙ УСТАНОВКИ	73-82
<i>O'tashov Zafar</i>	CHIGITNI LINTERLASHDA ARALASHTIRGICHDAJI QAYSHQOQ ELEMENT BILAN ARRALI SILINDRNI HARAKATDAGI CHIGITLAR QATLAMIGA TA'SIRI JARAYONINI MODELLASHTIRISH.....	83-90
<i>Achilov Jamoliddin</i>	G'ALLA O'RISH – TASHISH TIZIMI TEXNIKA VOSITALARINI SAQLASHNI ILMIY ASOSLASHGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI	91-96

<i>Eshdavlatov Akmal va Pirnzarova Madina</i>	
SARIMSOQPIYOZ YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI.....	97-100
<i>Maxfuz Axmadи</i>	
ВЛИЯНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА НА ИРРИГАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ АФГАНИСТАНА И НЕОБХОДИМОСТЬ ИХ АДАПТАЦИИ.....	101-108
<i>Baytileuova Guljaxan, Davlatboyeva Ozoda, Berdimbetova Amina</i>	
TRANSFER MATRITSA USULI YORDAMIDA OROL DENGIZI HAVZASIDA YER KONVERSIYASINI TAVSIFLASH.....	109-114
<i>Payzullayeva Ayzada, Madetov Dauranbek, Berdimbetov Timur</i>	
GRACE YORDAMIDA SUV BALANSINI VA UNING IQLIM O'ZGARISHIGA MUNOSABATINI BAHOLAS.....	115-120
<i>Bazarov Dilshod, Norkulov Bexzod, Voxidov Oybek, Rayimova Iroda, Qalandarova Dilsuz</i>	
SAMARQAND VILOYATI TOG'LI XUDUDIDA SEL OQIMLARINING ShAKLLANISHI VA OQIBATLARI.....	121-129
<i>Raxmatova Gulhayo</i>	
RESPUBLIKAMIZNING YIRIK SHAHARLARIDA KO'P QAVATLI AVTOSAQLASH JOYLARINI REJALASHTIRISHNING ZARURATI.....	130-136
<i>Akberadjiyeva Umida,</i>	
O'SIMTA HUJAYRASI (SARATON) O'SISHINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH.....	137-142

CHIGITNI LINTERLASHDA ARALASHTIRGICHDAGI QAYSHQOQ ELEMENT BILAN ARRALI SILINDRNI HARAKATDAGI CHIGITLAR QATLAMIGA TA'SIRI JARAYONINI MODELLASHTIRISH

O'tashov Zafar O'rolboy o'g'li

Jizzax politexnika instituti

Jizzax viloyati, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada paxta tozalash korxonalarida chigitdan momiqlarni ajratib olish uchun foydalilaniladigan 5LP linter uskunasiga takomillashtirish maqsadida parrakli aralashtirgich o'rnatilib harakatini nazariy izlanishlar orqali uning parametrlarini asoslashga erishilgan.

Kalit so'zlar. paxta, chigit, momiq, linterlash, parrak, aralashtirgich, samaradorlik, 5LP.

MODELING THE INFLUENCE OF A CYLINDER WITH A ROLLING ELEMENT IN A MIXER ON THE MOVING SEED LAYER IN SEED LINTING

O'tashov Zafar Uralboy ugli

Jizzakh Polytechnic Institute

Jizzakh region, Uzbekistan

Abstract. In this article, in order to improve the 5LP linter equipment used in cotton ginning enterprises to separate lint from seed, a blade mixer was installed and its parameters were justified through theoretical research.

Keywords: cotton, seed, lint, linting, blade, mixer, efficiency, 5LP.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ts3030-3702v3i2y2025N010>

Introduction. Jahonda paxtani qayta ishlashda ilmiy asoslangan zamonaviy texnika va texnologiyalarini ishlab chiqarish va ishlab chiqarishga joriy etish doirasida keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan paxta tozalash korxonalarining asosiy uskunalaridan biri bo'lgan linterni resurstejamkorligini oshirish, ishlash jarayonini avtomatlashtirish, ish unumdorligini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga linter uchun resurstejamkor takomillashtirilgan aralashtirgichni ishlab chiqish, parametrlarini asoslash, texnik va urug'lik chigitlarni linterlash jarayonida texnik chigitdan yog' mahsuloti olishiga, urug'lik chigitni unuvchanlik va hosildorligiga salbiy ta'sir etuvchi mexanik shikastlanish darajasini kamaytirish bilan samaradorlikni oshirish zarur hisoblanadi [1].


Respublikamizda paxta-to'qimachilik klasteri tizimini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini zamonaviy mahalliy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, paxtani qayta ishlashda korxona rentabelligini va ishlab chiqariladigan mahsulotlarning

raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, to'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish, jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishda to'qimachilik sohalarining ishlab chiqarishga ta'sirini o'rganish..." vazifalari belgilab berilgan [2]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan va iste'molchining chigit va momiqqa bo'lgan ehtiyojini qondiradigan chigitni linterlashning yangi texnikasini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Paxtachilik sohasiga ega bo'lgan chet davlatlarda arrali va valikli jinlardan ishlab chiqarilgan chigitlar sirtidan momiqni qirib olishda ham linterlar ishlatiladi. Xorijiy davlatlarda linterlash jarayoni yog'-moy korxonalarida amalga oshiriladi. Bunda faqat texnik chigitlar linterlanadi. Urug'lik chigitlarni tayyorlash maxsus korxonalarda kimyoviy usulda amalga oshiriladi [3].

Paxta sohasida rivojlangan AQSh, Xitoy, Turkiya, Xindiston davlatlarida texnik chigitni linterlash keng yo'lga qo'yilgan. Masalan, AQSh davlatini "Kontinental igl", "Xardvik Etter", "Lyummus" firmalari, Xitoy davlatining "Shandun" kompaniyasidagi "Lebed", "Xongrun" firmalari tomonidan linter uskunalarini ishlab chiqariladi [4].

O'tgan asrning 70 yillarida chet davlat texnika va texnologiyasini o'rganish bilan paxtani qayta ishlashdagi texnologik tizimni zamонавиylashtirish maqsadida Respublikamizga AQSh davlatining yetakchi firmalari tomonidan paxtani qayta ishlash uchun ishlab chiqarilgan uskunalar olib kelinib, bir nechta paxta tozalash korxonalariga o'rnatilgan. Bularidan Paxtaorol paxta tozalash korxonasiiga o'rnatilgan "Kontinental Moss Gordin" firmasida ishlab chiqarilgan 630 modelli linterlar uch qatorni va har bir qatorida 10 donadan umumiy 30 donani tashkil qilgan. Linter ishchi kamerasida tezlatgich bo'lib, tezlatgichdagi parraklar soni 4 dona, tezlatgichning tashqi diametri 120 mm, aylanish tezligi 525 r/min ni tashkil etgan (1- rasm).



1- rasm. AQShning 630 modelli linter uskunasi

1- ta'minlovchi valik, 2- tarnov, 3- magnit, 4- ishchi kamera,

5- aralashtirgich, 6- chigit tarog'i, 7- kolosnikli panjara,


8- arrali silindr, 9- cho'tkali baraban, 10- momiq tashuvchi kanal

Arrali silindr valining tashqi diametri 100 mm bo'lib, valga 176 dona arra va 175 dona arralar oraliq qistirmalari yig'ilgan. Bunda arrali silindrning aylanish tezligi 695 r/minga teng bo'lgan. Linterda qalinligi 1 mm va tashqi diametri 320 mmm arralar ishlatilgan.

Experimental method. Linterning samaradorligi bo'yicha ishlab chiqarishda o'tkazilgan tajriba natijalari yuqori navli texnik chigitni birinchi bosqichda linterlashda chigit sirtidan momiqni qirib olish jarayoni kam bo'lib, o'rtacha 1,5% ni tashkil qilgan. Bunda linterning chigit bo'yicha ish unumdorligi o'rtacha 600 kg/h ga, momiq bo'yicha 18 kg/hga teng bo'lib, pasportidagi chigit bo'yicha ish unumdorlikka qaraganda o'rtacha 35% ga kam bo'lgan. Ishlab chiqarilgan momiq shtapel uzunligi bo'yicha 8/9 mm bo'lib, A tipga to'g'ri kelgan. Birinchi bosqichdan chiqqan chigitni ikkinchi bosqichda linterlashda chigitdan o'rtacha 2,0% momiq qirib olingan. Bunda linterning chigit bo'yicha ish unumdorligi o'rtacha 520 kg/h, momiq bo'yicha 20 kg/hni tashkil etgan. Ishlab chiqarilgan momiqni shtapel uzunligi bo'yicha 5/6 mm ni tashkil etib, B tipga to'g'ri kelgan. Ikkinchi bosqichdan ishlab chiqarilgan chigitni uchinchiligi bosqichda linterlashda chigitdan o'rtacha 1,5% momiq olinib, ishlab chiqarilgan chigitning tukdorligi 7% ni tashkil etgan. Momiqning shtapel uzunligi 4/5 mm bo'lib, B tipga to'g'ri kelgan. Bunda linterning chigit bo'yicha ish unumdorligi o'rtacha 450 kg/hga, momiq bo'yicha o'rtacha 19 kg/hga teng bo'lgan. Linter konstruksiyasiga asosan ta'minlovchi sistemada chigitni iflosliklardan tozalash uchun qoziqli barabanning yo'qligi ishlab chiqarilgan momiq tarkibida momiqdagi butun chigit va iflos aralashmalar miqdorining ko'payishiga olib kelib, sifatining pastligidan iste'molchining sifatli momiqqa bo'lgan talabini qondirmagan. Bundan tashqari ta'minlovchi sistemada aspiratsiya tizimining bo'lmasligi bo'limda chang havoni me'yordan oshishiga olib kelib, ekologik muhitni buzgan va inson salomatligiga zarar yetkazgan. Linterda ushbu kamchiliklar bo'lgani uchun ular mahalliy linterlarga almashtirilgan [5].

Chet davlatda ishlab chiqarilgan linterlarni mahalliy paxta tozalash korxonalariga qo'llanilishida, ularni ish unumdorligi texnik xarakteristikasidagi ish unumdorlikka qaraganda ancha kam ekanligini ko'rsatgan. Linterlardagi arrali silindrning o'rtacha 1100 r/min tezlikda aylanishi chigitni linterlash jarayonida chigit shikastlanishini oshishiga, momiqdagi butun chigit va iflos aralashmalar massaviy ulushini oshishiga olib kelgan. Ishlab chiqarilgan momiq sifat ko'rsatkichi bo'yicha iste'molchini sifatli momiqqa bo'lgan talabini qondirmagan. Linterdag'i arrali silindr aylanish tezligining yuqoriligidan ularda urug'lik chigitlarni linterlashga ruxsat etilmagan.

Mahalliy va xorijiy paxta tozalash va yog'-moy korxonalariga joriy etilgan linterlarning konstruksiyalari, afzallik va kamchiliklarini o'rgangan holda ish unumdorlikni oshiradigan, chigit va momiq sifatini yaxshilaydigan, elektr energiya va ehtiyyot qismlar sarfini tejaydigan takomillashtirilgan aralashtirgichga ega bo'lgan linter ishchi kamerasini sxemasi ishlab chiqildi (2- rasm).



2- rasm. Takomillashtirilgan aralashtirgichga ega bo'lgan 5LP linter ishchi kamerasining sxemasi

1- ishchi kamera, 2- plastina, 3- krestovina, 4- rezina, 5- val, 6- chigit tarog'i,
7- kolosnik, 8- arrali silindr, 9- zichlik klapani.

Ishlab chiqilgan sxema asosida chigitni linterlashda aralashtirgichdagi qayshqoq element bo'lgan rezina bilan arrali silindrda arra tishlari oralig'ida harakatlanayotgan chigitlar qatlamini siqish va siljitisnning modelini nazariy tomonidan ko'rib chiqamiz [6].


Arrali silindr bilan aralashtirgich parragi oralig'ida harakatlanayotgan chigitlar qatlamini modellashtirish uchun massali chigitni to'plangan qattiq sferali jism ko'rinishidagi mexanik sistema deb qaraymiz (3- rasm, a).

Bir yo'nalishda zichlangan chigit siljishini o'rganamiz.

Massasi m , uzunligi L bo'lgan qattiq AV rezina va arrali silindr arra tishlari oralig'ida h qalinlikka ega bo'lgan chigit qatlamini ko'rib chiqamiz.

a)

б)



3- rasm. Arrali silindr va aralashtirgich parragi oralig'idiagi ta'sir zonasida harakatdagagi chigitli massani sxemasi

1- ishchi kamera, 2- aralashtirgich, 3- chigit tarog'i,
4- arrali silindr, 5- kolosnikli panjara, 6- chigit qatlami.

Bunda rezinaga parrak tomonidan bir xil p_0 bosim kuchi ta'sir etadi va ushbu ta'sir ostida qattiqlik koeffitsiyenti k ga ega bo'lgan qayshqoq elementli rezina chigit qatlami bilan o'zaro ta'sirlashadi (3- rasm, b).

Linterlash zonasidagi chigit qatlami faqat normal kuchlar bilan ta'sirlashadi deb qaraymiz, bu holatda ishqalanish kuchi hisobga olinmaydi. Ma'lum bir moment oralig'ida plastinadan ajralmagan holda u bilan V_2 o'zgarmas tezlikda qatlam chegarasida parallel harakatlanadi. Bundan tashqari ustki plastina V_1 o'zgarmas tezlikda harakatlanayotgan chigit to'plami bilan bikirlik orqali o'zaro ta'sirda deb qaraymiz. Qatlam yuzasiga perpendikulyar holatida ox o'qni yo'naltiramiz va boshlang'ich koordinat etib, qatlam tekisligini ustki qismini belgilaymiz. ox o'qiga va unga perpendikulyar holatida siljiyidigan to'plamni $u(x, t)$ va $v(x, t)$ orqali belgilab kvazistatsionar usulda ko'rib chiqamiz. Ko'rileyotgan muhit zinch holatdagi tekislikdan farqli o'larоq maxsus tarkibga ega. Birinchidan, deformatsiyada boshlang'ich holatidan o'zining hajmini o'zgartirmaydi. Ikkinchidan, agar muhitda o'zgarmas kichik siljish yuzaga kelsa, u holda geometrik sabablarga ko'ra (zinch holatdagi zarrachalar zichlanmagan holatga o'tadi) siljishda siqilgan to'plamni hajmi kamayadi. Shuning uchun

hajmnning $\varepsilon_{xx} = \frac{du}{dx}$ nisbiy o'zgarishi $\varepsilon_{xy} = \frac{dv}{dx}$ siljish funksiyasi bo'lib, [7] ishga asosan quyidagi bog'liqlikda aniqlaymiz:

$$\frac{du}{dx} = -\mu \left(\frac{dv}{dx} \right)^2 \quad (1)$$

bu yerda μ - chigitni geometrik joylashishi va zinch to'plamdagи hajm konsentratsiyasiga bog'liq bo'lgan qatlam siqilishini o'lchamsiz koeffitsienti.

To'plamning holati va joylanishi quyidagi tenglama ko'rinishida yoziladi.

$$\frac{d\sigma_x}{dx} + \rho gx = 0, \frac{d\sigma_{xy}}{dx} = 0, \quad (2)$$

Deformatsiya va kuchlanish orasida quyidagi bog'liqlik mavjud

$$\sigma_x = -p(1 - 2\mu \frac{du}{dx}), \sigma_{xy} = 2\mu p \frac{dv}{dx} \quad (3)$$

(1) ni inobatga olgan holda σ_x bo'ylama kuchlanish quyidagi ko'rinishni beradi

$$\sigma_x = -p[1 + 2\mu^2 (\frac{dv}{dx})^2] \quad (4)$$

(1) ni inobatga olsak, (2) tenglama ikkita noma'lum $p(x,t)$, $v(x,t)$ ra эга va ular $P_0 = p_o L$ oralig'ida integrallanadi:

$$x = 0 \text{ да } m\ddot{u}_0 = P_0 - k[u_0 + (\mu \frac{\partial v(0,t)}{\partial x})^2], v = V_1 t \quad (5)$$

$$x = h \text{ да } p = k[u_0 + (\mu \frac{\partial v(h,t)}{\partial x})^2], v = V_2 t \quad (6)$$

(2) tenglamani qanoatlantiradigan (5) va (6) oralig'ida $p(x,t)$, $v(x,t)$ funksiyalarni topish murakkab bo'lganligi uchun qo'shimcha $\mu^2 (\frac{\partial v}{\partial x})^2 \approx 0$, $\rho gh \approx 0$ shartni qabul qilamiz.

U holda (5) va (6) quyidagi ko'rinishni oladi.

$$x = 0 \text{ bo'lganda } m\ddot{u}_0 = P_0 - ku_0, v = V_1 t \quad (7)$$

$$x = h \text{ bo'lganda } p = ku_0, v = V_2 t \quad (8)$$

Boshlang'ich nol holatida (7) dan birinchi tenglamaning yechimi quyidagiga ega:

$$u_0 = \frac{P_0}{k} (1 - \cos \omega t)$$

(8) ni qanoatlantiradigan (2) dan birinchi tenglamaning yechimi quyidagicha:

$$p = p_0 (1 - \cos \omega t) \quad (9)$$

(2) tenglamaning shartiga asosan $\frac{\partial v}{\partial x}$ deformatsiyani quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$v = \xi V_2 t + (1 - \xi) V_1 t \quad (10)$$

бү ерда $\xi = x/h$

Urunma kuchlanish σ_{xy} quyidagi formula orqali hisoblanadi [7]

$$\sigma_{xy} = 2\mu p \frac{dv}{dx} = 2\mu p_0 (1 - \cos \omega t) (V_2 - V_1) t$$

Analysis and results. Hisoblash ishlari quyidagi parametrlarning qiymatlari bo'yicha bajarildi:


$$L = 0,006m, h = 0,01m, V_1 = 4,7m/s, V_2 = 12,2m/s, P_0 = 100Pa, m = 0,005kg,$$

Bunda linterlash zonasida arrali silindrdragi arra tishida chigitning bo'lish vaqtini $t_0 = L/(V_2 - V_1) = 0,0008s$ ga teng.

4- rasmda urunma kuchlanishni $\sigma_{xy}(Pa)$ rezinali materialni har xil qattiqlik koeffitsiyenti qiymati k (N/m)da vaqt oralig'ida arra tishi bilan chigit yuzasini o'zaro ta'siriga


bog'liqligi keltirilgan. Ushbu kuchlanishni oshishi chigit yuzasidan momiqni qirib olish jarayonini yaxshilaydi.

Grafiklardan kuchlanishni eng katta qiymati (160 Pa) qattiqlik koeffitsiyentini 3-chi egri chiziqda, ya'ni $k = 5 \cdot 10^4 \text{ N/m}$, $k = 10 \cdot 10^4 \text{ N/m}$, $k = 15 \cdot 10^4 \text{ N/m}$, $k = 25 \cdot 10^4 \text{ N/m}$ da yuzaga kelishini ko'rish mumkin. Bu qonuniyatni rezina turlarini tanlashda foydalanish mumkin.



$$1 - k = 5 \cdot 10^4, 2 - k = 10^4, 3 - k = 5 \cdot 10^4, 1 - k = 8 \cdot 10^4, 2 - k = 10^4, 3 - k = 10 \cdot 10^4,$$

$$4 - k = 8 \cdot 10^4 \quad 4 - k = 12 \cdot 10^4$$



$$1 - k = 12 \cdot 10^4, 2 - k = 13 \cdot 10^4, 3 - k = 15 \cdot 10^4, 1 - k = 20 \cdot 10^4, 2 - k = 22 \cdot 10^4, 3 - k = 25 \cdot 10^4,$$

$$4 - k = 18 \cdot 10^4 \quad 4 - k = 27 \cdot 10^4$$

4- rasm. Urunma kuchlanish $\sigma_{xy} (\text{Pa})$ ni vaqtga bog'liqlik grafigi

Conclusion. Olib borilgan nazariy izlanishlar natijasida quyida keltirilgan xulosalarni olishimiz mumkin:

1. Chigitni linterlashda aralashtirgich parragi tomonidan rezinaga beriladigan bosim orqali rezinani chigitli qatlam bilan o'zaro ta'siri o'rganilgan. Bunda rezina qattiqlik koeffitsiyenti k ni inobatga olgan holda aralashtirgichdagi parraklarga o'rnatilgan rezina bilan arrali silindriddagi arra tishlari oralig'ida harakatlanayotgan chigitlar qatlamini siqilishi va siljishi modellashtirildi.

2. Rezinani aralashtirgich parraklaridan tashqariga chiqib turish balandligi 6 mm, rezina qalinligi 6 mm va qattiqlik koeffitsiyenti $k = 5 \cdot 10^4 \text{ N/m}$, $k = 10 \cdot 10^4 \text{ N/m}$,

$k = 15 \cdot 10^4 \text{ N/m}$, $k = 25 \cdot 10^4 \text{ N/m}$ bo'lishi nazariy tomondan o'rganildi. Bunda chigit sirtidan momiqni qirib olish jarayoni samarali bo'lishi uchun jarayonga ta'sir etuvchi urunma kuchlanish $\sigma_{xy} = 160(\text{Pa})$ teng bo'lishi aniqlangan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. International cotton advisory committee. Washington, From the Secretariat of the ICAC. <https://icac.org/>, emailsecretariat@icac.org. September 1, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentini 2022 yil 28 yanvardagi «2022- 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni. Toshkent, 2022.
3. Sulaymonov R.Sh., Mardonov B.M., Lugachev A.E. Issledovanie dvijenie zernistoy sredi vnutri rabochey kamery lintera// Trudy mejd.nauch. konf. «Raxmatulinskie-Ormonbekovskie chteniya». - g. Bishkek , 27-29 iyunya. 2013. -S. 111-113.
4. Sulaymonov R.Sh., Kushakeev B.Ya., Madraximov D.U. Izyskanie putey povышениya effektivnosti protsessa linterovaniya semyan. Otchet po NIR, OAO «Paxtasanoat ilmiy markazi». -Tashkent, 2011. -65 s.
5. D'yachkov V.V., Fadin A.A., Bakiev R.A. Sozdanie modernizirovannogo pilnogo lintera s elementami avtomaticeskogo upravleniya yego rabotoy. Otchet SNIIXproma.- Tashkent. 1990.- 213 s.
6. R.Sh. Sulaymonov, U.A. Norboev. RESEARCH ON THE EFFECTIVENESS OF 5LP LINTER. Actual problems of modern science, education and training. Khorezmscience.uz. 2022. Pp. 78-84.
7. R.Sh. Sulaymonov, O'.A. Norboev, M.S. Xudoyqulov. 5LP linter ishchi kamerasining asosiy ishchi qismini takomillashtirish. Zamonaviy tadqiqotlar, innovatsiyalar, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari. Ilmiy-texnik anjuman materiallari. 1-qism. Jizzax, 8-9 aprel, 2022.- 89-92 b.

ISSN: 3030-3702 (Onlayn)
САЙТ: <https://techscience.uz>

TECHSCIENCE.UZ

TEXNIKA FANLARINING DOLZARB MASALALARI

Nº 2 (3)-2025

TOPICAL ISSUES OF TECHNICAL SCIENCES

Muassislar: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati;
Jizzax politexnika instituti.

**TECHSCIENCE.UZ- TEXNIKA
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**
elektron jurnalı 15.09.2023-yilda
130343-sonli guvohnoma bilan davlat
ro'yxatidan o'tkazilgan.

TAHRIRIYAT MANZILI:
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy.
Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Barcha huqular himoyalangan.
© Sciencesproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil